

Olamni



tozalaylik

Mundarija

- 2 Xush kelibsiz!
- 5 ■ Amaliy reja 1. «Olamni tozalaylik» o'yini
- 6 ■ Amaliy reja 2. «Nomini ayting» o'yini
- 7 ■ Amaliy reja 3. Diqqat - axlat!
- 8 ■ Amaliy reja 4. Qanday axlat qayta ishlanishi mumkin
- 9 ■ Amaliy reja 5. Resurslar xaritasi
- 10 ■ Amaliy reja 6. Axlattan qanday qilib resurs olish mumkin
- 11 ■ Amaliy reja 7. Axlating chirishi
- 13 ■ Amaliy reja 8. Axlat inson salomatligiga zarar yetkazadi
- 14 ■ Amaliy reja 9. Men kim?
- 15 ■ Amaliy reja 10. «Tozalash» tadbirini rejalashtiring
- 16 ■ Amaliy reja 11. Xatar va xavfsizlik
- 17 ■ Amaliy reja 12. Farqni o'lchang
- 18 ■ Amaliy reja 13. Axlatingni o'lchang
- 19 ■ Amaliy reja 14. Tozalash hududini uy bilan taqqoslang
- 20 ■ Amaliy reja 15. Keyin va hozir
- 21 ■ Amaliy reja 16. Kompost tayyorlash
- 22 ■ Amaliy reja 17. Hayot aylanasi
- 23 ■ Amaliy reja 18. Joy tayinlang
- 24 ■ Amaliy reja 19. Bu yerda kim yashaydi?
- 25 ■ Amaliy reja 20. Kelajakni tasavvur qiling
- 27 **Olamni bo'ya**
- 28 Ilovalar





Xush kelibsiz!

«Olamni tozalaylik» o'quv qo'llanmasiga xush kelibsiz. Ushbu qo'llanma dunyodagi eng yirik «Olamni Tozalaylik» «amaliy» ekologik dasturning bir qismi hisoblanadi.

Ushbu qo'llanma o'qituvchilarga quyidagilarda ko'maklashadi:

- o'quvchilarni axlatning kelib chiqishi va tovarlar ishlab chiqarish uchun zarur xom ashyolar bilan tanishtirish;
- o'quvchilarda axlatning atrof muhitga va odam salomatligiga ta'siri haqida tushuncha hosil qilish;
- o'quvchilarga chiqarilayotgan axlat miqdorini kamaytirish mumkinligini tushuntirish;
- o'quvchilarga axlatdan qanday qilib takroran foydalanish mumkinligini ko'rsatish;
- ularning maktabi va uyini tozalash tadbiriga o'quvchilarni tayyorlash;
- ushbu tadbir orqali talabalar (o'quvchilar)ni mahalliy atrof muhitni yaxshilash bo'yicha uzoq muddatli tadbirlarga jalb qilish.

«Olamni tozalaylik» nima o'zi?

«Olamni tozalaylik» har yilning sentyabr oyida butun dunyo ahlini keng miqyosli global tozalash jarayoniga birlashtiradigan xalqaro hamjamiyat va ekologik loyihadir.

«Olamni tozalaylik» dasturi quyidagilarga yo'naltirilgan:

- dunyoning barcha burchaklarida yashaydigan odamlarni ularning muhitini yaxshilashga qaratilgan oddiy ishlarga birlashtirish;
- «Avstraliyani Tozalaylik» va boshqa tashkilotlar tomonidan jamlangan axborot va amaliy tajriba bilan barcha xalqlar va madaniyatlarni tanishtirish;
- hukumatlar, sanoat tashkilotlarini mahalliy ekologik muammolar, ayniqsa, axlatni kamaytirish, uni takroran ishlatish, shuningdek chiqitlar bilan ishlash haqida xabardor qilish maqsadida xalqaro ommaviy axborot vositalari e'tiborini dastur faoliyatiga qaratish.

Ushbu qo'llanma quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- maqsad, asosiy tamoyillar va har bir «Amaliy reja»ning (Action Sheet) ehtimoliy tadbirlarini tushuntiradigan o'qituvchi uchun qo'llanma;
- oltita rasmi 8 ta varaq (icon card);
- 6 ta boyash qog'ozi.

O'qituvchilar uchun qo'llanma maqsadlari

O'qituvchi uchun ta'lim to'plamiga o'qituvchi uchun qo'llanma quyidagilardan iborat:

- to'plam bilan ishlashga tayyorlash;
- «Amaliy reja» maqsadlari, o'quv rejasi, asosiy faoliyat tamoyillari va amallar davomi;
- keyingi axborot.

Ushbu to'plam g'oyasi:

To'plamda yirik ob'yekt va hayvonlar uchun so'zlar o'rniga suratlardan foydalaniladi. Matn oddiy tushunarli tilda yozilgan.

Amaliy reja

To'plam boshlang'ich maktab hamda yoshi kattaroq o'quvchilarning o'qituvchilari uchun foydali bo'lishi mumkin. Amaliy rejalar boshlang'ich maktab va o'rta maktabning kichik sinflari uchun mo'ljallangan, biroq o'qituvchilar uchun qo'llanmada o'rta sinflar o'quvchilari uchun mavzular ham berilgan.

To'plamdan qanday foydalaniladi?

Amaliy rejalar

Amaliy rejalar o'quvchilar quyidagilar haqida bilim olishlari uchun mo'ljallangan:

- axlat muammolari, ularni qanday qilib kamaytirish va qayta ishlatish mumkin;
- «Tozalash» qanday qilib rejalashtiriladi va otkaziladi;
- qanday qilib «Tozalash» uzoq muddatli o'zgarishlarga olib keladi.

Amaliy rejalar boshlang'ich va o'rta sinflar o'quvchilariga mo'ljallangan.

Shuningdek har bir amaliy rejaning davomi ham borki, u amaliy rejaning o'zidan murakkabroqdir. Mazkur keyingi faoliyat odatda tilni yaxshiroq bilish, o'quvchilardan ba'zi ko'nikmalarni talab qiladi hamda faoliyat kattaroq yoshdagi o'quvchilar uchun ham qiziqishini yo'qotmaganligini anglatadi. O'rta sinflar o'qituvchilari ayniqsa ulardan manfaatdor. Barcha amaliy rejalar o'quvchilarning ehtiyojlariga ko'proq mos kelishi uchun o'qituvchilar tomonidan kochirilishi, qayta chizilishi va o'zgartirilishi mumkin. Ular ingliz tilida, shuningdek sinfda qo'llaniladigan boshqa istalgan tilda yuritiladi. Nusxa ko'chirish texnikasiga ega bo'lmagan o'qituvchilar rejalarining qo'shimcha rasmlari (masalan, chizmalı kartochkalar)ni ishlatadi yoki uni sinf taxtasiga chizadi va yozadi.

O'qituvchilar gazeta maqolalari singari o'z materiallaridan foydalansa yoki mahalliy axborot va samarali o'qitish uslublariga asoslangan shaxsiy vazifalarini qo'shsa maqsadga muvofiq. Keyinchalik bu o'quvchilarga faqat foyda keltiradi.

Ushbu to'plamdan foydalanishdan avval Tozalashni boshlamay turib, albatta, mahalliy tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bilan bog'laning. Ular keyinchalik sizga yordam berishi ehtimoldan xoli emas.



Muhim ta'lim natijalari

Kartochkalardagi 20 ta mashq o'quvchilarga quyidagilarni bilish imkonini beradi:

- «Olamni tozalash» dasturi dunyo ekologiyasini yaxshilashga qanday komaklashadi;
- Sanoat va maishiy chiqitlar (axlat) qanday ekologik muammolarni keltirib chiqaradi;
- Uch amal: chiqitlar miqdorini kamaytirish, undan takroran foydalanish va qayta ishlashdan foydalanish zarurati;
- Chiqitlarning har xil turlari mavjudligi haqida;
- Chiqitlar kasallik keltirib chiqarishi va salomatlikka zarar yetkazishi haqida;
- Tabiat olami nima ekanligi;
- Chiqitlar hayvonlarga qanday ta'sir ko'rsatadi;
- Atrof muhitga doimo ehtiyotkorona munosabatda bo'lish zarurati;
- Ular yashayotgan joy va uni yaxshilash haqida;
- O'g'itlarni tayyorlash.

Javoblar (kalitlar):

- o'qituvchilar o'zlari yashayotgan iflos joylar suratlarini o'rnatishi uchun skriplarda bosh joylar qoldirilgan;
 - 1 – eng katta/yuqoridan 9/10/111-eng pastgacha;
 - to'rtburchaklardagi bosh joylar yozish uchun qoldirilgan;
 - ona tilida;
 - barcha suratlar bir sahifada mujassam (29).
- Izoh:* chiqitlar suratlari ikki guruhga ajratilgan: yirik chiqitlar (plastmassa buyumlari, shisha, qog'oz singari) va mayda axlat (paketlar, batareykalar, sigareta qutilari).
- O'qituvchi uchun qo'llanmaning har bir kartochkasida chap ustun quyida keltirilgan rasmlardan birini o'z ichiga oladi, ular necha o'quvchi mashqni bajaryotganini ko'rsatadi.



1 bola



2 bola



3 bola



4 bola



Guruh yoki butun sinf





«Olamni tozalaylik» o'yini

amaliy reja



Maqsadi:

Olamni tozalaylik dasturi maqsadi va miqyoslarini tasavvur qilish va sinf/maktab unda qanday ishtirok eta olishini korsatish

Dastur geografiya, til, fan sohasidagi bolalar bilimlarini rivojlantiradi.

Mashq bayoni:

O'quvchilardan ular atrofidagi ifloslangan joylardan misol keltirishni iltimos qiling, songra ulardan «Olamni tozalaylik» dasturi haqida nimalarni bilishini sorang.


O'quvchilar «Olamni tozalaylik» dasturi maqsadlari, unda qancha mamlakat va odam ishtirok etishi, ba'zi mamlakatlarni aniqlash kabilarni biladimi yoki yo'qligini aniqlang.

Songra o'quvchilarga plakatni (kattalashtirilgan 1-ilovani) korsating hamda misollar va «songgi faktlar» haqida sozlashing, o'quvchilarni global oylash, joyda harakat qilishga orgating, bitta kichik ekologik muammoni hal qilish global muammoning bir qismini hal qilishdek gapligini muhokama eting.

Xulosa qilib o'quvchilarga axlatni kamaytirish, qayta ishlash va imkoni bo'lganda takror qo'llash haqida sozlab bering.

Chiqitlar bilan ishlash ketma-ketligi:

Kamaytirish
Qayta qo'llash
Qayta ishlash
Joylashtirish



Chiqitlar (axlat) haqida soz yuritganda chiqitlarni qayta ishlash yaxshiligi, lekin ularni qayta qo'llash yoki kamaytirish yanada afzalligiga alohida e'tibor qarating.

Olamni tozalaylik o'yiniga yo'l-yo'riqlar

O'yin toylari va fishkadan foydalanib 4-6 kishili guruhlar kartochka boyicha soat millariga qarab harakatlanadi. O'yinchi ushbu belgilarga duch kelsa, quyidagi amallarni bajaradi:



O'yinchi bitta qadam olga tashlaydi



O'yinchi uch qadam orqa yuradi



O'yinchi ikki qadam olga bosadi



O'yinchi uch qadam olga yuradi.

Butun olamni birinchi bolib aylanib chiqqan o'yinchi g'olib hisoblanadi. Qit'angizdagi belgisi boshlanish nuqtasi sanaladi.

Murakkab mashq:

■ O'yinchilar (yer shari) belgisida toxtalganida chiqitlar haqidagi savollarga javob berishsa, qoshimcha ochko olishadi. Savollarni plakatdan olish mumkin. Savollar shuningdek mamlakatingizda chiqariladigan chiqitlar statistikasiga oid bo'lsa ham yaxshi. Zarurat tug'ilganida o'qituvchi savollarni alohida kartochkalarga joylashtiradi.





«Nomini ayting» o'yini

amaliy reja



Maqsadi:

O'quvchilarga to'plamda qo'llaniladigan rasmlarni tushunishda ko'maklashish. O'yin (chet) tilini rivojlantiradi.

Bayoni:

Mazkur mashq o'quvchilarga yangi so'zlarni o'rganish va eslab qolish imkonini beradi.

1. O'quvchilardan axlat nimadan (qanday buyumlardan) iborat ekanligini so'rang.

2. Songra o'quvchilardan rasmlarni ko'rsatib, unda tasvirlangan narsalar nomini ona tilida va ingliz tilida aytishni so'rang.

3. «Yarmingni top» o'yini. Ushbu o'yinga maktabdan tashqaridagi ochiq havoda ham, sinf xonasida ham o'ynash mumkin. O'yinda butun sinf qatnashadi yoki u ikki guruhga (kamida 16 kishidan) ajratiladi. Sinf (guruh) yarmi axlatni tashkil qiladigan narsalar surati tushirilgan kartochkalarni oladi, boshqasi esa suratdagi narsalar nomi yozilgan kartochkalarni qo'lga kiritadi. Songra ikkala guruh bir-biriga savol beradi va o'zining yarmini topishga intiladi.

4. O'quvchilar partalarda juft bo'lib otirishadi va suratlarga taalluqli so'zlarni aniqlashadi (O'quvchilar suratlar va so'zlar yozilgan kartochkalardan yoki

Kartochkalardan foydalanishi mumkin).

5. Avvalgi mashq tugaganidan keyin o'quvchilar axlat buyumlari tushirilgan rasmlarni turlari bo'yicha taqsimlashi kerak (masalan, plastik butilkalar plastik chiqitlarga kiritiladi). Agar nusxa ko'chirish texnikasiga ega bo'lmasangiz, to'plamdagi yirik rasmlarni (bir varaqqa 6 ta rasm) qirqib olib, doskaga joylashtiring.

Murakkab mashq:

■ «Yarmingni top» o'yinining boshqa ko'rinishi. Bu safar so'zlar yozilgan kartochkali o'quvchilarga rasmlarni ko'rsatmay, rasmga to'g'ri keladigan so'zni faqat bayoni bo'yicha aniqlash kerak bo'ladi.



Diqqat – axlat!



amaliy reja

Maqsad:

O'quvchilarga ular yashaydigan joyda qanday axlat va chiqitlarga duch kelish mumkinligini eslatish hamda axlat odamlarga, atrof muhit va tabiatga qanday ta'sir qilishini tushuntirish.

Mazkur mashq til va fan bilimlarini kuchaytiradi.

Bayoni:

1. Mashqni boshlashdan avval o'quvchilardan ular yashaydigan joyda qanday axlat uchrashi, u bilan bog'liq qanday muammolarga duch kelinishini sorang.

2. Ushbu mashqni bajarish uchun 3-kartochka kerak. Axlatning ko'rsatilgan turlari o'quvchilar yashash joyida uchrasa, ular belgi (ha) qoyishadi, agar uchramasa, keyingi ustunchaga krestik (yo'q) qoyishadi.

3. Keyingi ustunga o'quvchilar o'zlari yashaydigan joyda qanday axlat turi ko'proq uchrashini va bu qanday muammolarga olib kelishini belgilashadi.

4. O'ng ustunda o'quvchilar ushbu axlat turi yashash joylarida qanchalik jiddiy muammolarga olib kelayotganini baholashadi (1 dan 10 gacha).

Izoh: bu bosqichda o'quvchilar bu sohadagi bilimlariga qarab baho qoyishadi. Ularning bilimlari cheklangan bo'lishi, ular axlat turlarini aniqlashda qiyinnalishlari mumkin, bu ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilariga taalluqli. 3-8-

kartochkalar avvalgi bilimlarga tayanadi va bolalarga har bir axlat turining xususiyatlari haqida hikoya qiladi.

7-kartochka bilan ishlanganidan keyin baholash mashqini takrorlash maqsadga muvofiq, chunki bu paytga kelib, o'quvchilarning ko'proq bilimlga ega bo'ladi.

Bu muhim: atrof muhitni yaxshilash bo'yicha tadbirlar o'tkazilganidan keyin mazkur kartochkaga qaytish va o'quvchilardan qanday axlat turlarini terganini «Keyin» ustuniga yozib qo'yishni (miqdoriga ko'ra 1 dan 10 gacha baholashni) sorang. Ustunlardagi baholarni taqqoslang va o'quvchilarning aytganlari qanchalik mos kelganini aniqlang.

Murakkab mashq:

O'quvchilar axlat qanday qilib bir joydan boshqa joyga ko'chishini yaxshiroq tushunishlari uchun shamolli yoki yog'inli kuni suv va shamol axlatni qanday ko'chirishini ko'rsating. O'quvchilar axlat qanchalik uzoqqa surilishi va qayerda to'xtashini taxmin qilishsin. Ular nimaga (og'irligi, yuzasi, materiali) asoslanib taxmin qilishayotganini sorang. O'quvchilar shamolli yoki yomg'ir suvi oqayotgan joyga kelib, cheklangan vaqt davomida axlat qanchalik uzoqqa surilganini o'lchashsin. O'quvchilar axlat ko'chgan vaqt va masofa ko'rsatkichlariga asoslangan jadval chizishlari mumkin.





Qanday axlat qayta ishlanishi mumkin?

amaliy reja



Maqsad:

Odamlar tashlagan har narsa axlat bo'lovermasligini o'quvchilarga tushuntirish. Ushbu mashqni bajargandan song o'quvchilar axlat miqdori kamayishi, axlat takror ishlatilishi va qayta ishlanishi mumkinligini anglashlari kerak.

Ushbu mashq o'quvchilarning til, fan va rasm chizish boyicha bilimlarini boyitadi.

Bayoni:

O'quvchilar axlat chizilgan rasmlarni ikki savatchaga joylashlari kerak. Mashqni bajarishdan avval o'quvchilardan axlatni nima qilishimiz kerakligini sorang. Zarurat bo'lsa, plakatta tushirilgan axlatni kamaytirish, takror qo'llash va qayta ishlash yo'li bilan axlatga qarshi kurashish mumkinligini eslatib va keyingi mashqda o'quvchilar qanday axlat qayta ishlanishi, qaysilari qayta ishlanmasligini aniqlashlarini ayting.

Izoh: suratlardagi ikki turdan boshqa barcha axlat turlarini qayta ishlash mumkin. Javoblarni siz yashaydigan joydagi axlatni qayta ishlash inshootlariga bog'lash o'rinli.

Murakkab mashq:

■ O'quvchilar axlat va qayta ishlanadigan chiqitlar uchun korzinalarni o'zlari chizishlari yoki yasashlari hamda ularga axlatni to'g'ri joylashtirishlari mumkin.

■ O'quvchilar axlatni kamaytirish, takror qo'llash va qayta ishlashga bag'ishlangan o'z rasmlarini tayyorlashlari va o'zlari yashaydigan joydagi axlat va unga qarshi kurashish resurslariga bog'lashlari kerak.

■ O'quvchilar tabiatdagi moddalar qayta ishlanishi jarayonlari haqida misol keltirishlari lozim (masalan – ozon). Ushbu mashqni 16-kartochka (insho) va 17-kartochka (kartochkadagi moddalar almashinuvi) bilan bog'lang.

■ O'quvchilar chiqitlarning qanday xususiyatlari (masalan, narxi, materiali, xom ashyosi kabi) ularni qayta ishlash uchun yaroqli va yaroqsiz qilishini aniqlashlari talab etiladi.





Resurslar xaritasi

Maqsad:

Turli tovarlarni ishlab chiqarish uchun qanday resurslar zarurligini o'quvchilarga tushuntirish.

Inson uchun zarur narsalarni tayyorlashda tabiiy resurslardan foydalanishni qisqartirish mumkinligini izohlash.

Bu mashq o'quvchilarning fan, til, geografiya sohasidagi bilimlarini rivojlantiradi.

5.1-mashq bayoni

Ushbu mashqda o'quvchilar narsalar va ularni tayyorlash uchun zarur bo'lgan tabiiy resurslarni to'g'ri joylashtirishlari kerak.

Qog'oz

- Daraxt
- Suv
- Energiya

Shisha

- Qum
- Suv
- Energiya

Polat

- Temir rudasi
- Suv
- Energiya

Plastmassa

- Yog'
- Energiya

Alyuminiy

- Boksit
- Energiya
- Suv

5.2-mashq bayoni

Mashqni boshlashdan avval kop sonli idishlardan qutulish yo'llarini so'rang. Keyin o'quvchilardan polietilen paketlaridan kamroq foydalanish yo'llarini yozishni iltimos qiling. Masalan:

- Lattali sumkalardan foydalanish
- Har bir buyumni alohida paketga joylashtirmaslik
- Mahsulotlar/narsalarni ulgurji xarid qilish
- Paketlarni tashlab yubormay, takror ishlatish.

Muhim fakt:

Avstraliyada har yili 6 milliard polietilen paket ishlatiladi. bu katta miqdordagi axlat paydo bo'lishiga va ko'plab havvonlarga zarar yetkazilishiga olib keladi (7-kartochkaga qarang).

Murakkab mashq:

■ O'quvchilarga tabiiy qazilmalar qanday qilib resursga aylanishini tushuntirish uchun texnologik jarayon xaritasini tayyorlash. Bu atrof muhitga qanday ta'sir qilishini ko'rsating (7-kartochka bilan bog'lang).

■ Alyuminiy, shisha, qog'oz, plastmassa va po'lat ishlab chiqaruvchilarga axborot taqdim etishlarini iltimos qilib, maktub yozing.

■ Siz yashaydigan mamlakatda va boshqa davlatlarda qanday tovarlar ishlab chiqarilishini aniqlang.

Jahon tabiiy resurslari xaritasini tayyorlang va sinfga osib qo'ying. Jahon Resurslar Instituti har yili jahonning har bir mamlakatida ishlab chiqariladigan energiya va mineral qazilmalar haqida hisobot e'lon qiladi.





Axlatdan qanday qilib resurs olish mumkin

amaliy reja



Maqsad:

O'quvchilarga qanday chiqit turlari takror q'llanilishi va qayta ishlanishi tushuntirish.

Mazkur mashq til, fan, matematika, rasm chizish bilimlarini kuchaytiradi.

Bayoni:

Bu mashq o'quvchilarga javob qaytarish, savol berish, axborot almashinish, ekspert b'lish va o'ziga xos goyalar oylab topish imkonini beradi.

Rasm ikki jadvaldan iborat, ular birgalikda axlatni qayta ishlash manzarasini to'liq ko'rsatadi. O'quvchilar ikki jadvalni qirg'ib olishlari va bittasini tanlashlari kerak. Songra ular juft b'lib ishlashadi.

1. Mashq boshlanishidan avval o'zlariga tekkan jadvalni diqqat bilan o'rganishadi va javoblarni oldindan taxmin qilishadi.
2. Songra o'quvchilar juft b'lib ishlashadi (birinchisi shinadan so'zni boshlaydi, ikkinchisi o'z rasmidan shinadan yasalgan poyabzalni topadi), ikkinchi o'quvchi birinchisidan «Shinalar qanday qilib takror q'llanilishi va qayta ishlanishi mumkin?» deb so'raydi va hokazo.

O'quvchilarni mahalliy sharoitlarga mos javob qaytarishga undang (agar mahalliy korxonalar chiqitlarni qayta ishlasa, albatta).

Murakkab mashq:

■ Maktabdagi narsalarni takror q'llashga chaqiradigan plakat tayyorlash.

■ Maktab yoki mahalliy qayta ishlash korxonasida maktab yoki uydan olib kelingan resurslarni qayta ishlashni o'z ichiga olgan tizimni o'rnating.

■ Tabiiy xom ashyo qanday qilib tovarga aylanishini ko'rsatadigan texnologik xaritani tayyorlang.

■ Muayyan qayta ishlash turlarining afzalligi va kamchimliklarini muhokama eting.

■ Maktabga yaqin joyda qayta ishlash korxonasi bo'lsa, unga sayohat uyushtiring.

■ Maktabdagi qayta ishlash qurilmasi daromad keltiradimi yoki yo'qligini aniqlang, bu mablag'ga maktab uchun kitoblar xarid qilish mumkin.





Axlatning chirishi

amaliy reja

Maqsad:

Axlat chirishi uchun qancha vaqt zarurligi va u yovvoyi tabiatga qanchalik ta'sir qilishini o'quvchilarga tushuntirish.

Mazkur mashq til, fan, matematika, rasm chizish bo'yicha bilimlarni kuchaytiradi.

7.1-mashq bayoni

Ushbu mashqni bajarish uchun kartochkalardagi sozlarni o'quvchilarning ona tiliga tarjima qilish kerak, chunki ingliz tilida ishlash juda qiyin bo'lishi mumkin. Olamni Tozalaylik dasturi muammolarni hal qilishga yonaltirilgan va bu mashqda ham muammolarni yechish talab etiladi.

1. Mashqni bajarishdan avval o'quvchilardan yerga tushgan axlat bilan nima sodir bo'lishini sorang. Yerga meva پوستlogi, qog'oz va plastmassani qo'ying-da, ular qanday vaqt mobaynida o'zgarishini sorang.
2. Songra o'quvchilar rasmda tushirilgan axlat (1 dan 8 gacha) qanday tartibda chirishini aytishlari kerak.
3. Songra o'quvchilar axlat chiriydigan vaqt yozilgan raqamlarni olishadi va uni axlat bilan to'g'ri solishtirishlari lozim.
4. Endi to'g'ri javoblarni bering (ikki yoki uch kishi bilan ishlanadi).

Izoh: O'qituvchi javoblarni o'zgartirib, qiyinlashtirishi (foiz, kasr va boshqa taqqoslash usullarini qo'llaydi) va kichik sinf o'quvchilari uchun 2 va 9-javoblar singari osonlashtirishi maqsadga muvofiq.

Izoh: Kartochkadagi axlat chirishi vaqti o'rtacha hisoblanadi. Aslida chirish vaqti mahalliy iqlimga (havo harorati, shamol, yog'ingarchilik va hokazolarga) bog'liq.

Murakkab mashq:

O'quvchilar 9 ta gap olishadi, ular ustidan ishlab va oylab ular har qanday buyum chirishi uchun qancha vaqt talab qilinishini aniqlashadi.

To'g'ri javoblar

Buyum	Tabiatda chirishi uchun zarur bo'lgan o'rtacha vaqt
Qog'oz parchasi	3 hafta (2 dan 4 haftagacha)
Olma پوستlogi	4 hafta (3 dan 5 haftagacha)
Ip-gazlamali mato	3 oy (1 dan 5 oygacha)
Tor xalta	1 yil
Sigareta pachkasi	3 yil (2 dan 5 yilgacha)
Alyuminiy bankasi	300 yil (200 dan 400 yilgacha)
Plastmassa	400 yil
Shisha	Million yildan ortiq

Yordamchi kalitlar:

1. Sigareta pachkasi tor xaltaga qaraganda uch baravar sekin chiriydi.
2. Bu olti buyum plastmassaga qaraganda tezroq chiriydi.
3. Qog'oz parchasi olma پوستlogidan taxminan uch baravar tez chiriydi.
4. Alyuminiy bankasi plastmassaga qaraganda taxminan uch baravar tez chiriydi.
5. Shisha chirishi uchun plastmassaga qaraganda 2500 marta ko'p vaqt talab etiladi.
6. Ip-gazlamali mato banan پوستlogidan qariyb uch baravar sekin chiriydi.
7. Alyuminiy bankasi chirishi uchun sigaret pachkasiga qaraganda qariyb 100 baravar ko'p vaqt kerak.
8. Olma پوستlogi tor xaltaga kora taxminan 12 marta tez chiriydi.
9. Ip-gazlamali matoga qaraganda sekinroq chiriydigan beshta narsaning nomini ayting.



7.2-mashq bayoni

Mashqni boshlashdan avval o'quvchilardan axlat yovvoyi tabiatgi qanday ta'sir qilishi va muayyan axlat turlari qanday muammolar keltirib chiqarishini so'rang. Masalan, «Sigareta pachkasi hayvonga qanday zarar yetkazadi?» deb so'rang. Oldindan o'quvchilar rasmlardagi hayvonlarni yaxshi bilishini aniqlab oling (mahalliy yoki yaxshi tanish bo'lgan hayvonlarni qo'llashingiz mumkin). O'quvchilarni kit haqidagi muhim fakt bilan tanishtiring.

Izoh: Tashlanadigan axlatning katta qismi daryolarga tushadi va bu yerda dengiz hayvonlariga zarar yetkazadi. 3-kartochkaning murakkab mashqiga murojaat qiling.

Izoh: 400 yil chirydigan plastmassa bir necha marta zarar keltirishi ehtimoldan xoli emas. Masalan, dengiz qushi plastmassani yeb o'lishi, uni keyin boshqa hayvonlar eyishi, plastmassa esa ularga ham zararli ta'sirini otkazishi mumkin.

Javoblar:

Baliq tutish to'rlari, baliq va qushlar unga oralashib qoladi va chiqib ketolmay, ochlikdan o'ladi.

Polietilen paketlari suv ustida suzib yuradi, kit va dengiz toshbaqalari uni meduza deb o'ylab yeyishadi. Yutilgan paketlar oshqozonga tiqilib qoladi va bu hayvonning o'limiga olib keladi.

Batareykalar tarkibidagi kimyoviy moddalar atrof muhitga oqib chiqishi va hovuzda yashaydigan hayvonlar, masalan, qurbaqalarga zarar yetkazishi turgan gap. Qurbaqalar kimyoviy moddalarga juda ta'sirchan.

Sigareta pachkalari dengiz toshbaqalarining kundalik yemishiga o'xshaganligi uchun ular tomonidan yeyilishi mumkin. Toshbaqalar oshqozonining faoliyati yomonlashadi, natijada ular normal ovqatlanolmay, halok bo'ladi.

Pestisid va zaharlar atrof muhitga oqib tushadi va suvda yashaydigan

hayvonlar, masalan, qurbaqa va baliqlarga zarar yetkazadi.

Shariklar havosi chiqib ketgach, okean yoki dengizga tushsa, toshbaqa, delfin va kitlar ularni meduza deb oylashadi. Yutilgan shariklar hayvonlar oshqozonida tiqilib qoladi va ularning normal ovqatlanishiga bermaydi, natijada jonivorlar vafot etadi.

Plastmassa o'qlarini qush va dengiz toshbaqalari baliq ikrasi deb o'ylaydi. O'qlar oshqozonga tiqiladi va o'limga olib keladi. Plastmassa o'qlarini sigir va boshqa hayvonlar ham adashib yutib yuborishi hech gapmas.

Murakkab mashq:

■ O'quvchilarga atrof muhitga tashlanadigan va hayvonlarga zarar yetkazadigan narsalar tushirilgan rasmlar korgazmasini otkazishni taklif qiling.

■ O'quvchilar yerga tashlangan plastmassa parchasi yuvilib, daryoga tushgani va u orqali dengizga yetgani haqida hikoya tuzishlari yoki rasmlar turkumini chizishlari kerak. Dengizda plastmassa 400 yil davomida turli hayvonlar tomonidan takror-takror yeyiladi va ular o'limiga olib keladi. Aksincha, atrof muhitni tozalash tadbirida qatnashayotgan o'quvchi uni yig'ib olsa, shuncha o'limning oldini olish mumkin. O'quvchilar bunday hollarga qarshi turishlari lozim, masalan, axlat chelagiga tashlangan plastmassa zarar yetkazmaydi.

Muhim fakt:

Kasallangan kitning uch oshqozoni:

● kichik sharcha ● kichik ezilgan plastmassa chelakchasi ● sigareta pachkasi o'lchamidagi shaffof polietilen idish bilan to'silib qolgan.

Ushbu narsalar hayvon oshqozonidan olib tashlanganidan keyin kit tuzala boshladi va tez orada yana tabiat go'yniga qavtdi. Biroq hamma kitlar ham bunday omon qolavermaydi (plakatdagi Muhim faktaa e'tibor qarating).





Axlat inson salomatligiga zarar yetkazadi

amaliy reja



Maqsad:

O'quvchilarga axlat va inson salomatligi ortasidagi bog'liqlikni tushuntirish.

Bu mashq o'quvchilarning til, fan, matematika va geografiya bo'yicha bilimlarini kuchaytiradi.

Bayoni:

Mashqning mazmuni rasmlarni taqqoslash va ularning to'g'ri tartibini aniqlashdan iborat. Shuningdek o'quvchilar har bir rasmga sarlafha topishlari kerak.

Murakkab mashq:

- Chivinlar hayoti va hayot siklini ko'rib chiqing.
- Statistika murojaat qilib, chivinlar qanday kasalliklar yuqtirishini aniqlang.
- Chivinlar yuqtiradigan kasalliklarga qarshi turli mamlakatlarda qanday kurashilishini aniqlang. Q'llanilayotgan usullar afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsating (masalan, botqoqliklarni quritish chivinlardan xalos qiladi, lekin yangi muammolarga duch kelinishi mumkin, toshqin va atrof muhit ifloslanishi xavfi tug'iladi, chunki botqoqliklar tabiiy filtrlar sanaladi va atrof-muhit ifloslanishiga to'sqinlik qiladi).
- Salomatlikni saqlash va kasallikning oldini olish bo'yicha yo'l-yoriqlar tuzing.

Muhim fakt:

O'rta sinf o'quvchilari uchun salomatlik va axlat ortasidagi bog'liqlik haqida ba'zi faktlar:
■ Har yili qariyb 4 million bola xonadagi havo ifloslanishi (ayniqsa taom tayyorlanadigan yog'larning tutashi) va ko'chadagi iflos (aniqsa sanoat ishlab chiqarishiga oid) havo bilan bog'liq nafas olish yo'llarining kasallanishi tufayli vafot etadi. *Chivinlar orqali yuqadigan bezgak kasalligi ayniqsa atrof muhit holatiga bog'liq. Bezgak yiliga 1 dan 3 milliongacha hayotni olib ketadi, bu ayniqsa yosh bolalarga taalluqli.*

■ Har yili atrof muhit holati bilan bog'liq kasalliklar tufayli yana 2,5 million bola hayotdan ko'z yumadi. Lotin Amerikasida allaqachon yo'qotilgan vabo kasalligi ekologik va ijtimoiy omillarga ko'ra 1991 yilda yana paydo bo'ldi va taxminan 11 ming kishining umriga zavol bo'ldi, faqat Peruning ozida 200 million dollarilik iqtisodiy zarar yetkazdi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda pestisidlarni qo'llash vaqtidagi himoya yo'qligi tufayli har yili 3,5 dan 5 milliongacha kishi o'tkir zaharlanadi va bundan kelib chiqib, yuqoridagi raqamlarga yana millionlab kuchli bo'lmasa-da, xatarli zaharlanishlarni qo'shish mumkin.

Manba: Jahon Resurslari Instituti, 1998. «Atrof muhit o'zgarishi va inson salomatligi», Jahon Resurslari, 1998-99.





Kimman?

Maqsad:

O'quvchilarga axlat xususiyatlari haqida bilim berish.

Taalluqli fanlar:

Til, fan va matematika

Bayoni:

Bir o'quvchi istagi bo'yicha yoki kor-korona axlat rasmini tanlaydi. Qolgan o'quvchilar axlat turlarining turli xususiyatlari haqida savol berishadi va rasmdagi axlatni aniqlashga intilishadi, birinchi o'quvchi esa savollarga ha yoki yo'q deb javob beradi. Mana beriladigan savollarga misollar:

- *U baliqlar uchun zararlimi?*
- *Uni yerdan olish xatarlimi?*
- *Uni ishlab chiqarish uchun ko'p resurs talab etiladimi?*
- *Uni tayyorlash uchun temir rudasi kerakmi?*
- *U atrof muhitda chirishi uchun ko'p vaqt kerakmi?*

■ *U qog'ozdan yasalganmi?*

Agar o'quvchi qanday axlat turi haqida so'z borayotganini fahmlasa, masalan, «Bu singan shishami?» deb sorashi mumkin. Agar javob to'g'ri bo'lsa, endi bu o'quvchi rasm tanlaydi va savollarga javob beradi, javob noto'g'ri bo'lsa, ushbu o'quvchi keyingi raundgacha o'yindan chiqadi va savol bermaydi.

Murakkab mashq:

■ Axlat har xil turlarining xususiyatlarini o'z ichiga olgan matrisali jadval yasang.

amaliy reja





amaliy reja



«Tozalash» tadbirini rejalashtiring

Maqsad:

Olamni tozalash bo'yicha bo'ladigan tadbirni rejalashtirishga o'quvchilarni o'rgatish

Taalluqli fanlar:

Til, fan, matematika.

Bayoni:

Ushbu mashq o'quvchilarni Tozalashni rejalashtirish va amalga oshirish haqida oylashga va o'z fikrini bildirishga undaydi.

■ Amaliy rejaning birinchi qismida o'quvchilarga tozalash kerak bo'lgan mahalliy hududlarni aniqlash, ularni nima uchun Tozalash kerakligini aytish hamda tozalash sabablarini ahamiyati bo'yicha ajratishni yuklang. Har bir o'quvchi eng muhim sababga 4 ochko, ahamiyati kamroq bo'lgan sababga 3 ochko va hokazo qo'yib chiqsin. Sabablarni baholash tugaganida o'quvchilar uning natijalarini butun sinfga e'lon qilishsin. Butun sinf bilan tanlangan eng tozalash zarur bo'lgan hududni aniqlash uchun ushbu axborotni jadvalga kiriting. Uning natijasidan kelib chiqib,

Tozalash o'tkaziladigan joyni tanlang.

